



Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida inson ruhiyati talqini

Xomidova Guljahon Hasanovna

NamDU o'zbek adabiyotshunosligi

yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Muallif o'zbek adabiyotshunoslik magistranti sifatida Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidan behad ta'sirlanganini e'tirof etadi. Butun boshli asarning asosiy qahramonlariga ta'rif berishni ma'qul ko'radi. Adabiyotshunos sifatida “Ufq” trilogiyasini yuksak baholaydi.

Kalit so'zlar: Tragediya, nasrnavis, dramaturg, novella, hajviy hikoya, detektiv, Katta Farg'ona kanali, Markaziy Farg'ona, qardosh xalqlar.

O'g'illardan yalchimagan benasib padar

O'z shogirdin “o'g'il” deya topar tasalli.

(“Mirzo Ulug'bek” tragediyasi.

Sakkokiy nutqidan)

Said Ahmad - nasrnavis va dramaturg, o'zbek adabiyotida kichik nasr - hikoya ustasi sifatida tanilgan. Uning ko'plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Mislsiz xizmatlari uchun Said Ahmad “Buyuk xizmatlari uchun” va “Do'stlik” ordenlari hamda “O'zbekiston qahramoni”,



“O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” sharaflı unvonlariga sazovor bo‘lgan.

Said Ahmad 1920-yil Toshkentda ishchilar oilasida tug‘ilgan. U mehnat faoliyatini barvaqt boshlagan. 30-yil boshlaridayoq yosh jurnalist va ijodkor sifatida qishloq xo‘jaligi kollektivlashuvida va aholining savodsizligiga barham berishda faol ishtirok etgan. Katta xalq qurilishlarida muxbir bo‘lib ishlagan.

30-yil boshlari, 40-yil oxirlarida “Qizil O‘zbekiston” gazetasining sahifalarida, “Mushtum” va “Sharq yulduzi” jurnallarida o‘zining ocherk va hikoyalarini chop etadi, radioda ham faol ishlaydi.

30-yil oxirlaridan Said Ahmad badiiy nasr janrida samarali ijod qiladi, uning birinchi hikoyalar to‘plami “Tortiq” 1940 yil nashr etilgan. “Jimjitlik” romanida turg‘unlik davri illatlari fosh etiladi. 40-yillar uning “Er yurak” (1942), “Farg‘ona hikoyalari” (1948), “Muhabbat” (1949) kabi to‘plamlari nashr etilgan.

50-yillar boshi, 60-yillar oxirida Said Ahmadning ijodi yanada yuqoriroq badiiy darajaga ko‘tariladi. U o‘nlab lirik va hajviy hikoyalar yaratib, o‘zbek adabiyotining hikoya janri rivojida muayyan o‘ringa ega bo‘lgan. Bu yillar Said Ahmad ijodida yangi mavzu alohida e‘tiborga loyiq - bu Markaziy Farg‘onaning bo‘z yerlarini o‘zlashtiruvchilar hayotining aks etish mavzusidir. Bu hikoyalar “Cho‘l burguti”, “Cho‘l shamollari” va “Tunlar va cho‘llar” kabi to‘plamlardan joy olgan bo‘lib, bizning ko‘pmillatli adabiyotimizdagi “qishloq nasri”ning o‘ziga xos timsollari hisoblanadi.

Said Ahmad o‘zini nasrning yirik janrlarida ham sinab ko‘rgan. U “Hukm” qissasini yozgan. Shuningdek, o‘zbek nasrida nisbatan sust rivojlangan detektiv janri asosidagi “Sud” qissasini yaratib, unda axloqiy-tarbiyaviy muammolarni ilgari ko‘taradi. Vanihoyat, “Ufq” trilogiyasini yozadi. Ushbu trilogiya yozuvchi ijodida alohida o‘rin tutadi — zamonaviy o‘zbek nasridagi yirik hodisa.

Said Ahmad ushbu romanlar ustida 15 yil mehnat qilgan. Ular yozuvchining butun hayot yo‘lini qamrab olgan - urushdan oldingi, urush davridagi va urushdan keyingi yillarni.



Roman asosida chin tarixiy voqealar yotadi - Katta Farg'ona kanalining qurilishi va Markaziy Farg'ona kanalining egallanishi. Ushbu tarixiy hodisalar asosida yozuvchi xalqning ma'naviy dunyosini ochib, qadimdan ularga hos mehnatkashlikni, to'g'riso'zlik, jasorat - xalqaro ittifoqdoshlik va jamoaviylikni ko'rsatib beradi - bular esa inson qalbiga xos olijanob va himmat manbalari sanaladi.

“Ufq” o'zbek va rus tillarida ko'pkarra nashr etilgan, qardosh xalqlarga bir necha bor tarjima qilingan. Kitobxonlar orasida shubhasiz, shuhrat qozongan mazkur trilogiya uchun muallif 1978-yil Hamza nomidagi O'zbek SSRning Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Darhaqiqat, shunday asarlar borki, kishi bu asarni o'qib, bir necha kun asar ta'siridan chiqa olmaygan. Kechalari to'lg'onib chiqadi. Said Ahmadning “Ufq” asari ham shunday asarlar sirasidan munosib o'rin egallagan, desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Asar uch katta kitobdan iborat bo'lib, trilogiya hisoblanadi. Asarning qismlari quyidagilar:

1. Qirq besh kun
2. Hijron kunlarida
3. Ufq bo'sag'asida

Asarning dastlabki qismida Katta Farg'ona kanalining qazilishi, bu buyuk inshoot deyarli butunlay qo'l kuchi yordamida bunyod etilganligi hikoya qilinadi. Kanal uzunligi uch yuz oltmish kilometr bo'lib, qirq besh kun(!) ichida qazib bitkaziladi. Yozuvchi kanal qazish jarayonida asar qahramonlarining xarakterini ham ko'rsatib o'tadi. Bu qismda Azizxon va Lutfinisaning fojeali sevgi qissasi hikoya qilinadi. Azizxon to'y libosida bo'lgan o'z sevgilisi Lutfinisani to'y kechasida olib qochar ekan, go'yo ularning boshiga baxt qushi qo'ngandek bo'ladi. Azizxon va Lutfinisa shunday baxtli edilarki, ular butun dunyoga qarshi chiqa oladigandek edi go'yo. Ikki sevishgan qissasi hikoya qilinish



jarayonida asarning bosh qahramoni Ikromjon obrazi o'quvchiga tanishtiriladi. Endilikda Azizxon obraziga to'xtalib o'tsak. Azizxon bolaligidan o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan sho'x yigit bo'lib ulg'ayadi. Uning ko'ngli qishloqdoshi qachonlardir o'zi yig'latib yurgan bir qiz- Lutfinisaga tushadi. Lutfinisa ham unga mayl bildiradi. Uning akasi Akbarali singlisini boshqa bir yigitga uzatmoqchi bo'ladi. Natijada Azizxon qizni to'y kechasi olib qochadi. Ular qishloqdan qochib kanal qurilishiga boradi. Azizxon o'z yori bilab darbadarlikda yurar ekan, o'zining aynan shu chog'da ulg'ayib qolganligini, hayot sinovlari uni tobora toblab borayotganligini his qiladi. Azizxon kanal qurilishida jonbozlik ko'rsatib, mashhurlik, qarsaklar orasida yashab turgan bir vaqtda Lutfinisa o'z akasi qo'li bilan vahshiylarcha o'ldiriladi. Yozuvchi shunda o'quvchiga saboq bermoqdaki, hayot aslo o'yinchoq emas. Bu dunyoda har bir narsa, xoh u ijobiy bo'lsin, xoh salbiy bo'lsin, har bir xatti-harakat uchun, albatta, javob tayyor turadi. Lutfinisa ham faqat o'zini, o'z sevgisini o'ylagani, akasi, qolaversa, qarindosh-urug'lari, butun qishlog'i yuziga oyoq bosgani uchun o'z joni bilan tovon to'ladi. Azizxon ham shunday o'zboshimchaligi bilan jondan sevgan yorini yo'qotdi, butun qishloq yuziga qaray olmaydigan bir holga yetdi. Lutfinisaning akasi Akbarali o'z singlisi ko'ngil mayllariga e'tiborsiz bo'lganligi, ota-onasidan yodgorlik hisoblanmish Lutfinisani o'ldirgani uchun taqdir undan o'ch oldi: o'zi ham itdek o'lim topdi.

Asarning ikkinchi qismida asosan Ikromjon va uning oilasi o'quvchiga tanishtiriladi. Ikromjon va uning rafiqasi Jannatxon o'ttiz yil birga yashab, to'qqiz farzandning ichidan yagona yashab qolgani, ota-onaning yagona arzandasi Tursunboyning xatti-harakatlari o'quvchini hayratga soladi. Yigirma bir yil qo'lini sovuq suvga urdirmay, yig'laganda birga yig'lab, kulganda birga kulib ulg'aytirgan farzandi Tursunboy urushga olib ketilayotgan vaqtda qochib keladi. Bu nafaqat qochoqning ota-onasi, qarindosh-urug'lari, balki butun qishloq uchun sharmandali hol bo'ladi. Shu vaqtda Ikromjon va Jannat xola qalbidagi Tursunboy solgan dardni, alamni Nizomjon davolaydi. Albatta, ota-ona uchun bu darddan



ortiq dard bo'lmasa kerak. Ammo Alloh Ikromjon va Jannat xolaning tortgan azoblari, to'kkan ko'zyoshlari ajrini Nizomjon siymosida yuborgandek bo'ladi. Xo'sh, Ikromjon va Jannat xola farzand tarbiyasida qanday xatolarga yo'l qo'ygan ediki, Tursunboy ularning yuzini yerga qaratdi. Avvalo, Ikromjonga to'xtalsak. Ikromjon asarda juda katta sabr egasi, buyuk matonat sohibi sifatida o'quvchida ijobiy taassurot uyg'otadi. U yuqorida qayd etilganidek, ko'plab farzandlari orasidan yagona yashab qolgan farzandi Tursunboyga shamolni ham ravo ko'rmay o'stiradi. Bu o'rinda onaning "xizmatlari" ham katta, albatta. Tabiiyki, ona baribir onaligicha qolaveradi. Ikromjon Tursunboyning qaysidir xatti-harakati uchun unga dakki bermoqchi bo'lsa, ona doimo farzandining yonini olib, unga also gap tekkizmaydi. Natijada Tursunboy garchi qishloqning eng oldi yigiti bo'lishiga qaramasdan, erka, mas'uliyatsiz bir inson bo'lib ulg'ayadi. Asarning ushbu qismida Nizomjon va uning oilasi haqida kengroq ma'lumot beriladi. Nizomjon obraziga to'xtalib o'tamiz.

Nizomjon aslida Ikromjon va Jannat xola uchun tamoman begona bo'lgan bir yigit. Uning otasi Inoyat oqsoqol bo'lib, nihoyat darajada xasisligi va yomon fe'lliligi uchun xalq orasida Jinoyat oqsoqol deb ataladi. Bolalikdan to shu kungacha o'z otasidan ro'shnolik ko'rmagan, uning ustiga sevgan qizi Dildorning o'z akasi A'zamjonga turmushga chiqayotganligini eshitgan Nizomjon o'z uyidan bosh olib chiqib ketadi.

Ushbu asar kishi irodasi nimalarga qodir ekanligi, inson peshana terisi dunyolarni yashnatishi mumkinligi, bashariyat bor ekan, ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, saxiylik va baxillik o'rtasida abadiy kurash kechishi va bu kurashda ezgulikning doimo muzaffar ekanligi o'z aksini topgan. Bunga Nizomjon, Azizxon va Zebi kabi obrazlarning taqdirini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Bu asar Said Ahmadning haqiqiy shoh asarlaridan biri sifatida o'quvchilar orasida judayam qadrli.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Normatov U., Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971; G'afurov I., Prozaning shoiri, T., 1984.
2. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. -T.: „Yozuvchi“, 2000.
3. Karimov N.va boshqalar 20 asr o'zbek adabiyoti tarixi.-T.: „O'qituvchi“, 1999.
4. Q. Yo'ldoshev va boshqalar Adabiyot (6-sinf). -T.: „O'qituvchi“, 2000.
5. Ufq, T., 1976; Saylanma [3 j.li], 1982; Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000; Qorako'z majnun, T., 2001; Kiprikda qolgan tong, T., 2003.
6. V.G.Belinskiy. Adabiy orzular. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
7. N.Shukurova va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. T., “O'qituvchi”, 1979, 53-59-betlar.
8. T.Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish. T., “O'qituvchi”, 1979, 40-49-betlar.